



**EOC**  
EUROASIAN  
ONLINE  
CONFERENCES

# SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON  
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND  
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi • digital object  
identifier

eoconf.com - from 2024




**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION:** a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2025, Issue 4.

**Languages of publication:** Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



## JAHON VA O'ZBEK ASARLARIDA "QAHRAMON OTA" OBRAZINING QIYOSIY TADQIQI VA UNING LINGVOKULTUROLOGIK AHAMIYATI

**Abduqahhorova Navro'zaxon**

Farg'ona davlat universiteti

Chet tillari fakulteti 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda jahon va o'zbek adabiyotida uchraydigan "Qahramon ota" obrazlarining badiiy tahlili, ularning qiyoslanishi, har birining o'ziga xos jihatlari, farqli va o'xshash tomonlari haqida batafsil ma'lumotlar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar.** Jahon adabiyoti, o'zbek adabiyoti, ota obrazi, Uilyam Shekspir, Qirol Lir asari, O'tgan kunlar asari, Lir timsoli, Yusufbek hoji obrazi.

**Kirish.** Badiiy adabiyot shubhasiz, inson kechinmalari, ruhiyati va qarashlarini ifoda etuvchi eng ahamiyatli unsurlardan biridir. Unda turli obrazlar aks ettirilishi orqali nafaqat ularning hayotdagi roli, balki u tegishli millatning qadriyatlari va o'ziga xosligi ham ifoda etiladi. Bunga misol qilib, Ota timsolini keltirish mumkin. U turli xalq adabiyotlarida turlicha talqin qilinadi, gavdalantiriladi.

**Asosiy qism.** Ota obrazi har bir xalqning madaniy tafakkurida, adabiy merosida, hatto tildagi metaforalar tizimida chuqur ildiz otgan timsollardan biridir. U faqat biologik shaxs emas, balki ma'naviy tayanch, ibrat va axloqiy yo'l ko'rsatuvchi ramz sifatida qaraladi. Shu jihatdan "qahramon ota" obrazi o'zbek va jahon adabiyotida turlicha, ammo ma'no jihatdan o'xshash ruhda talqin etiladi.

1. O'zbek adabiyotida "qahramon ota" timsoli

O'zbek adabiyotida ota obrazi ko'pincha mehr, fidoyilik, sabr va ma'naviyat manbai sifatida tasvirlanadi.[1:23]

Masalan:

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida ota obrazi hayot maktabining ibratli timsoli sifatida gavdalanadi. Ota – oilaning ustuni, farzandga hayot saboqlarini bergan donishmand inson.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Yusufbek hoji obrazi an'anaviylik, halollik va milliy qadriyatlar himoyachisi sifatida talqin etiladi.

Bu obrazlar o'zbek madaniyatidagi "ota" so'zining semantik maydonida — mehribonlik, adolat, mas'uliyat kabi lingvokulturologik qadriyatlarni mujassam etadi.[2:33]

2. Jahon adabiyotida ota obrazi

Jahon adabiyotida "qahramon ota" obrazlari ko'proq falsafiy va psixologik mazmunda yoritiladi.

Masalan:

Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" asarida Nikolay Bolkonskiy obrazi — qat'iyat, intizom va shaxsiy burchga sadoqat ramzidir.

Harper Leening "To Kill a Mockingbird" romanidagi Attikus Finch esa adolat, insonparvarlik va farzand oldidagi mas'uliyat timsolidir.

Bu obrazlar orqali jahon adabiyotida ota — shunchaki oila boshlig'i emas, balki axloqiy va ijtimoiy ideal sifatida ko'rsatiladi.

### 3. Lingvokulturologik jihat

Lingvokulturologik nuqtayi nazardan, "ota" konsepti har bir xalq tili va madaniyatida o'ziga xos semantik qatlamlarga ega.

O'zbek tilida "ota" so'zi "otash", "aslo", "avlod" kabi so'zlar bilan ildizdosh bo'lib, hayot beruvchi, himoyachi ma'nosini ifodalaydi.

Ingliz tilida father so'zi faith (e'tiqod) bilan fonetik va semantik jihatdan yaqin bo'lib, e'tiqodli rahnamo timsolini eslatadi.[3:56]

Shunday qilib, har ikki madaniyatda "qahramon ota" obrazining asosiy mohiyati — ma'naviy kuch, axloqiy tayanch va hayotiy donolik timsolida mujassamdir. Jahon adabiyoti, xususan, ingliz adabiyotining eng durdona asarlaridan biri Uilyam Shekspirning "Qirol Lir" (King Lear) pyesasidir. Shuni aytib o'tish joizki, ushbu pyesa avvaldan mavjud bo'lib, Shekspir tomonidan qayta ishlangan talqini juda ahamiyatga molik va ko'plab kitobxonlarning e'tibori va e'tirofiga sazovor bo'lgan. Ushbu pyesada markazda Ota, ya'ni Qirol Lir turadi. U bir vaqtning o'zida qat'iyatli hukmdor hamda qisman sovuqqon Ota hisoblanadi. Uning qarilik ostonasiga yaqinlashayotganini his qilib, o'z qizlaridan biriga davlatini topshirishi voqealari ketidan hayotida keskinlashuv kuzatiladi. Xo'sh, Qirol Lirning yo'l qo'ygan xatosi hukmdor sifatidami yoki ota? U qizlaridan otalariga bo'lgan mehrini so'z bilanoq tariflashlarini so'raydi. Kordeliya ismli qizi otasini chindan yaxshi ko'rsa-da, buni ortiqcha maqtov bilan bezashni istamaydi. Bu bilan ichki mehr, sevgi ortiqcha bo'rttirishlarga, soxta maqtovlarga muhtoj emasligini anglatmoqchi bo'ladi. Lekin Qirol Lir shuhratga, mulozamatlarga shunchalik oshno bo'lgan ediki, qizining ushbu "bo'ysunmasligi" uning toqatini tog' qiladi, va natijada ular o'rtasida munosabatlar keskinlashuvi kuzatiladi. Bu yerda Lirning xatosi - otalikning hukmdorlik qudrati bilan aralashib ketishi emasmi?! Albatta, shunday. Zero, hukmdor barchadan itoat kutadi, biroq ota masalasi biroz farqli. U shunchaki tushunish va mehr talab qiladi. Lir esa bu ikki rol ni chalkashtirib, otalikni siyosiy baholashga aylantirib qo'yadi. Natijada, mehr uchun joy yetmaydi, faqatgina "jazolash va mukofotlash" tamoyili asosida ish ko'radi. U bu tarzda fikrlashi ortidan otaligini unutar darajaga boribgina qolmay, davlatini ham qo'ldan boy beradi.

Lir hokimiyatdan, mavqedan va oxir-oqibat o'z "men"idan ajralgach, birinchi marotaba ichki nigohi bilan o'z xatolarini ko'ra boshlaydi. Qiziga nohaqlik qilganini anglab yetadi. U endi Qirol emas, hukmdor emas, faqatgina Ota edi. Qizlariga vaqtida berolmagan otalik mehrini ulashmoqchi bo'lganida esa afsuski juda kech edi. Chunki qizi Kordeliya halok bo'lgan edi. Lir bundan chuqur qayg'uga botadi. Ota o'laroq qalbi yig'laydi. Bu esa yuksak g'urur,

mag'rurlik ortida cheksiz mehr yashirinishi otalar tabiatiga xos sifatlardan ekaniga dalildir.[4:56]

O'zbek adabiyotidagi "Ota" obrazlari haqida so'z boshlar ekanmiz, bir narsani tan olish kerak: bizda Onalarimizga bag'ishlangan asarlar Otalarimiznikidan ko'ra ko'proq. Albatta, Jannatimiz kalitlari bo'lgan onalarimizni qancha e'zozlasak oz, biroq padari buzrukvorlarimiz ham ulardan quyi bo'lmasliklari kerak. Bilaks, ular ham diqqat markazida turgan asarlarimiz ham yo'q emas. Bunga misol qilib, o'zbek romanchiligi otasi, sevimli adibimiz Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanini keltirish mumkin. Unda Ota obrazi Yusufbek hoji timsolida gavdalantiriladi. U Sharq oilasining ustuni, ma'naviy tayanch ramzi o'laroq shaxslantiriladi. Yusufbek hoji nafaqat otalik, balki ustoz, obroli jamiyat arbobi, tarbiyachi darajasidagi real shaxs timsoli desak adashmaymiz.

U adolatli xalqparvar hamda farzandi tarbiyasiga juda e'tiborli ota edi. Doim o'g'li - Otabek ongiga halollik, rostgo'ylik, poklik hamda millatga xizmat qilish ruhini singdiradi. Yusufbek hoji o'g'lini jonidan ortiq sevadi, lekin shu bilan birga unga nisbatan qat'iy va mas'uliyatli. U Otabekni haddan ortiq erkalatmaydi, balki to'g'ri yo'lga, mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

U har doim adolat tarafdori. O'zi yashayotgan jamiyatdagi adolatsizlik, urf-odatdagi xatolar unga yoqmaydi. U or, nomus, halollikni insonning eng muhim qadriyati deb biladi. O'g'li Otabek boshidan og'ir sinovlar kechirsa-da, Yusufbek hoji sabr bilan, duo bilan unga madad beradi. U har doim "insonga sabr va e'tiqod kerak" degan fikrda. U oilasida tinchlik, totuvlik bo'lishini istaydi. Farzandlarining tarbiyasiga e'tiborli, ularni insoniy fazilatlar bilan o'stirishni o'z burchi deb biladi.

**Xulosa.** Bu ikki obrazning yoritilishi turlicha: biri (Lir) aql va mehrni aralashtirib yuborishi natijasida xatolar qilgan va haqiqatni keyinroq anglagan, ikkinchisi (Yusufbek hoji) esa otalik mehri bilan birgalikda fikr yuritgan holda aqlan ish kōruvchi ota timsolida gavdalanadi. Ular bu jihatdan farqli holatda ta'riflangan bo'lsa-da, ularni bog'lab turuvchi jihatlar ham yo'q emas. Ya'ni kim, ular ikkalasi ham otalik ma'suliyati, insoniy qadriyatlarni, mehr va kechirimni namoyon qiluvchi badiiy obrazlardir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Norqulov Sh. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Sharq, 2015.
2. Qosimova D. Badiiy obraz va lingvokulturologik tahlil masalalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Alekseeva M. N. Lingvokulturologiya: nazariya va amaliyot. – Moskva: Flinta, 2017.
5. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2001.